ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MAQOLLAR ORQALI RAMZIY MA’NONING IFODALANISHI

Muxammadaliyeva Shaxzoda Maxmud qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi

Xalq tafakkuri, tajribasi, falsafiy mulohazalari asosida yuzaga kelgan maqollar nutqda ishlatishga tayyor lisoniy birlik sanaladi. O‘zbek xalq maqollari mavzu jihatidan rang-barang bo‘lib, ular ajdodlarimizning yillar davomida kuzatgan, tahlil qilgan, to‘plagan xulosalaridir. «Har bir tilimiz ko‘rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan maqollar xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oil ava jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, O‘zi va O‘zligi to‘la namoyon bo‘lgandir»[1].

Bizni o‘rab turgan olam turfa xil va rang-barangdir. O‘simliklar inson hayotida o‘ziga xos o‘ringa ega. Ularsiz insonlar ham, hayvonlar ham bo‘lmasdi. O‘simliklar hayotimizga shunchalik singib ketganki, ular bilan bog‘liq maqol, iboralar nutqimizda tez-tez ishlatiladi. «Darhaqiqat, fitonimlar inson hayoti bilam uning turmush tarzi, madaniyati, bilim va saviyasi bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan qadimiy birliklardir. Fitonimlar insoniyat maishiy turli qirrali bilan bog‘liq holda vujudga keladi. Ular ma’lum mintaqada yashaydigan kishilarning hayotiy tajribasi, mashg‘uloti, tarixi, tili va ijtimoiy-ruhiy holati haqida muhim ma’lumot beradi. Zero, ular juda uzoq tarixiy davrning mahsuli hisoblanadi»[2]. Ayrim maqollar tarkibidagi o‘simlik nomlari ramziy ma’no hosil qilgan. Bu haqida tilshunos olima G.Ne’matovaning quyidagi fikrlarini keltirishni o‘rinli deb topdik: «Paremalar (maqol, matal, hikmatli so‘zlar) tarkibida o‘simlik nomlari leksemalari o‘ziga xos ma’no va vazifaga egadir. Bunda ular umumlashgan, yarim ramziy ma’no va qiymat kashf etadi»[3].

O‘zbek xalqining eng qadimgi don mahsulotlaridan bir bug‘doy hisoblanadi. Ota-bobolarimiz azaldan bug‘doy ekib, uni tegirmondan chiqarib, non va non mahsulotlari tayyorlagan. Bug‘doydan tayyorlangan non xalqimizning eng qadimgi va asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan biri bo‘lgan. Shu nuqtayi nazardan bug‘doy bugungi kunda lingvomadaniy fitomorf kodga aylangan. Chunki ushbu kod orqali o‘zbeklar nafaqat bug‘doy donini, undan tayyorlangan mahsulot, taomlarni, balki o‘zbek milliy hayot tarzi va unga bo‘lgan munosabatini ham aks ettirgan.

Bug‘doy «rizq, baraka, unumdorlik» ramzi sifatida ishlatiladi. U mazkur razmiy ma’nosi orqali O‘zbekiston Respublikasi davlat gerbida ham tasvirlangan. Bug‘doyning ramziy ma’nosi xalq og‘zaki ijodi, xususan, rivoyatlar orqali ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, juda qashshoq bir odam boyning uyiga qarzga don so‘rash uchun boradi. O‘sha vaqtda boy tomda g‘allani yelpiyotgan bo‘ladi va shu payt bir dona bug‘doy boshog‘i yerga yumalab tushib ketadi. Buni ko‘rgan boy tomdan o‘zini yerga tashlab, pastdan donni astoydil qidirib, uni topib, xirmoniga qo‘shib qo‘yadi. Bu vaziyatni ko‘rgan bechora odam qarz so‘rolmay, ortiga indamasdan qaytayotganda boy uni to‘xtatadi va nima maqsadda kelganini so‘raydi. Keyin unga «imkoning bo‘lganda qaytararsan» deb bir qop bug‘doy berib yuboradi[4]. Demak, bundan bilishimiz mumkinki, bug‘doyning har bir donida baraka bor, uni uvol qilmaslik kerak, zotan bir dona donda butun xirmonning barakasi bo‘lishi mumkin. Uning yuqoridagi ramziy ma’nolari quyidagi maqollarda aks etgan:

Botmon bug‘doy – yuz tanga;
Gap unda emas, bug‘doyda;
Bug‘doy bo‘lsa, o‘lchov topilar;
Arpa-bug‘doy bir kuningga yaraydi;
Arpa-bug‘doy osh bo‘lar;
Javdar joyiga tushsa, bug‘doy bo‘lar.

Yurtimiz hududida mevali va manzarali daraxtlarning ko‘plab turlari mavjud. Ular hayotimizning

[1] Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 3.
[2] Наримов Х. Хоразм минтақавий фитонимларининг лисоний таҳлили: Филол. фан. бўйича фалсафа док. ... дисс. – Урганч, 2020. – Б. 14.
[3] Неъматова Г. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемлари: тизими ва бадиий қўлланилиши: Филол. фан. ном. …дисс. – Тошкент, 1998. – Б. 93.
[4] https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/zuhriddin-isomiddinov-uch-maqola.html.

bir qismiga aylanib qolgani uchun maqollar tarkibida ham qo‘llanib, ramziy ma’nolar yuzaga chiqadi.

Atirgullilar oilasiga mansub ko‘p yillik mevali daraxt [O‘TIL, 2006: 3-115] bo‘lgan olma xalqimiz tomonidan sevib iste’mol qilinadigan mevalardan biridir. U serhosilligi, uzoq yillar davomida meva berishi bilan ahamiyatlidir. Olma «farzand» ramzi sifatida ishlatiladi. Buni quyidagi maqollarda ko‘rishimiz mumkin:

Olma tagidan yiroqqa tushmas;
Olma og‘ochidan olis tushmas;
Olmaning tagida olma yotar;
Olma olmadan rang olar;
Olma sabog‘idan ortiq bo‘lmas;
Sog‘ olma shoxidan tushmas.

Olma fitomorf lingvomadaniy kodi asosidagi o‘xshatishlar o‘zbek va rus tillarida ham mavjud. O‘zbek tilida *olmadek, naqsh olmadek* o‘xshatishlari qip-qizil rangni anglatib, ayol-qizlarning yuz, yonoq, lablariga nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu o‘xshatish *olmadek qizil, olmadek qip-qizil, naqsh olmadek, olmaday qizarmoq, naqsh olmaday go‘zal* kabi shakllarda ishlatiladi. Ularda «chiroyli» ma’nosi yuzaga chiqadi.

Rus lingvomadaniyatida olma «sog‘lomlik» ramzi sifatida ishlatiladi va *красный как яблочка, румяный как яблочко* o‘xshatishlari sog‘lom odamlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu o‘xshatishlardagi *яблочка, румяный* so‘zlari ijobiy ma’noni yuzaga keltiradi, kichraytirish shakli ta’sirida ko‘proq bolalarga nisbatan ishlatiladi.

Chinor juda chidamli va uzoq umr ko‘radigan daraxtlardan biri hisoblanib, tilimizda fitomorf madaniy kodga aylangan. Ushbu daraxt boshqa xalqlarda ardoqlanadi va o‘ziga xos ma’nolari mavjud. Yaponiyada chinor abadiylik, donolikni anglatadi. Shuning uchun u ,ko‘pincha, katta hayotiy tajribaga ega keksa odamlar bilan assotsiatsiyalanadi.

Rus tilidagi *chinor* leksemasining ramziy ma’nolari o‘zbek tilidagi kabidir. Unda ham chinorning uzoq umr ko‘rishi va mustahkamligi asos qilib olingan hamda u «uzoq umr, mustahkamlik» ramziy ma’nolariga ega.

O‘zbek tilida *chinor* leksemasi xalqimizda «uzoq umr, mustahkamlik» ramziy ma’nolariga ega bo‘lib, u quyidagi maqollarda namoyon bo‘ladi:

Chinorning soyasi uzun bo‘ladi;
Bolalining beli – chinor, bolasizning beli sinar;
Chinor chirimas, archa qurimas.

Chinor so‘zi «turmush o‘rtoq» ramziy ma’nosiga ham ega. *Chiroying borida chinoringni top* maqoli ba’zi qizlarga nasihat tarzida yosh va chiroyli ekanligida bir umr birga yashaydigan, suyansa bo‘ladigan turmush o‘rtog‘ingni vaqtida tanla, aks holda yoshing o‘tib qolgandan keyin o‘zing tanlolmaysan, seni tanlashganiga turmushga chiqasan degan ma’noda aytadilar. *Har chinordan bir yaproq* maqolida esa chinor – oila, yaproq – farzand ramzi hisoblanadi va quda-andachilik munosabatlari aks etgan maqollardandir. Ya’ni bir oiladan qilingan bitta kelin yetadi, yana shu oiladan emas, boshqa oiladan kelin qilish kerak degan ma’no anglashiladi.

Har qanday millatning hayotidagi muhim omillardan biri suv hisoblanadi. Suvsiz hayotning mavjud bo‘lmasligi hammaga ma’lum. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi suvli hududdan (dengiz, okean) uzoqda yashasa-da, suv hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Zotan, bizda oqar suvlar, ariq, kanal, soy, daryolar ko‘p hisoblanadi. Sirdaryo, Amudaryo, Qashqadaryo, Zarafshon, Norin, Ohangaron, Keles va boshqa daryolar mavjud. Inson hayotida suv juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, qadim madaniyatlar suv bo‘yida shakllangan. Insoniyatni yashab qolishi uchun ham, taraqqiy etishi uchun ham, madaniylashishi uchun ham suv muhim omillardan bo‘lgan. U tirik mavjudotlar organizmlaridagi barcha jarayonlar to‘liq ishlashi uchun eng zarur manbadir, inson suvsiz uch kun yashashi mumkin, xolos, oziq-ovqatsiz uch hafta yashash mumkinligini inobatga olsak, suvning ahamiyati juda yuqoriligi aniq bo‘ladi. U aziz ne’mat hisoblanadi, qor va yomg‘ir obi rahmat deyiladi, xalqimiz ro‘zasini suv bilan ochadi, suvga tupurmaslik, chiqindilarni tashlamaslik bizga yoshligimizdan o‘rgatib kelinadi.

Vaqt tog‘ni yemirar, suv toshni kemirar maqolida ikkita voqelik bir-birga zidlantirilmoqda, antiteza qo‘llangan. «Antiteza fikr ta’sirchanligini oshirish maqsadida qo‘llanadigan ifoda usullaridandir. U qarama-qarshi fikrlarni ifodalash uchun ishlatiladi»[1]. *Vaqt* va *suv* leksemalarining zidlanishi maqolning ta’sirchanligi oshishiga xizmat qilgan. Suvning kuchli ekanligi yoritilgan. Zero, xalqimiz bekorga: «Suv balosidan, o‘t balosidan saqla», – deb aytmaydi. Odam hayotda har xil kunlarga tayyor turishi zaruligi, og‘ir kunlar boshlanmasdan avval harakatini qilishi zarurligi *suv kelmay band tashla* maqolida ko‘rinadi. Bu yerda *suv* leksemasi «sinov, kulfat, ofat» ramziy ma’nolariga ega. *Suvdan burun bo‘g‘ot sol; Suvdan ilgari – to‘g‘on, balodan ilgari – sadaqa; Suvning sekin oqqanidan qo‘rq, odamning yerga boqqanidan qo‘rq* maqollaridan ham shu ma’noda foydalaniladi. *It tumshug‘iga suv ketganda suza boshlaydi* maqolida yuqoridagi ramziy ma’no yuzaga chiqadi. *It* leksemasi salbiy ma’noda «pastkashlik, xor-zorlik» ramziy ma’nolarini bildirgani uchun aynan shu leksema tanlab olingan va bu maqolning badiiy qiymatini yanada oshirgan. Uning salbiy ramziy ma’noda ishlatilishi *it*

[1] Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2017. – B. 258.

tumshug‘ini tiqqan bilan daryo suvi harom bo‘lmas maqolida ham ko‘rinadi. Pastkash inson yaxshi xulqli insonni har qancha yomon ko‘rsatishga urinmasin, u maqsadiga erisholmasligi, chunki xalq u inson qanday ekanligini juda yaxshi bilishi, bunday tuxmat va bo‘xtonlarning foydasizligi anglashiladi.

Suv leksemasi ba’zi maqollar tarkibida «rizq-nasiba» ramziy ma’nosini bildiradi. Ba’zan qaysidir inson qilgan ish qolganlarning yaxshi yashishiga, turmushi yaxshilanib ketishiga sabab bo‘ladi. Ba’zi insonlar esa topganiga, boriga qanoat qiladi, hayotdan nolimaydi, oz topsa ham, ko‘pday qabul qilib, shukrona keltirib yashashda davom etadi. Maqollarda ana shunday holatlar nazarda tutilgan.

Bir odam ariq qazir, *ming odam suv ichar*;
Bir tomchi suv chumoliga daryo ko‘rinar;
Qulunli biyadan quduq suvi ortmas;
Har toycha o‘zi suv ichgan bulog‘ini maqtar
Shirin so‘z shoh kosasida suv ichar;
Daraxt tomiridan suv ichar.

Xulosa qilish mumkinki, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan hayotiy tajriba, milliy tafakkur, dunyoqarashlarning qisqa mazmunli va obrazli ifodasi bo‘lgan maqollarda ramziy ma’nolar ham voqelanadi. Uning tarkibidagi ayrim so‘zlar ramziy ma’no anglatadi. Maqollar tarkibidagi *bug‘doy* leksemasi «rizq, baraka, unumdorlik», olma «oila, muhabbat, farzand» ramzini bildiradi. *Chinor* leksemasi «kuch-qudrat, uzoq umr, mustahkamlik» kabi ramziy ma’nolarni anglatishi bilan birga «umr yo‘ldosh, oila» kabi ma’nolarni ham ifodalaydi. *Suv* leksemasi esa «sinov» va «rizq-nasiba» ramziy ma’nolarini anglatadi. Bular xalqning o‘ziga xos bo‘lgan milliy-madaniy nigohidan kelib chiqqan.

Rezyume. Ushbu maqolada maqollar orqali ramziy ma’noning voqelanishi yoritilgan. Bug‘doy, olma, chinor, suv tarkibli o‘zbek xalq maqollaridagi ushbu o‘simlik nomlari anglatib kelgan ramziy ma’nolar tahlil qilinib, izohlab berilgan.

Resume. This article examines the realization of symbolic meaning through proverbs. The symbolic meanings conveyed by the names of these plants in Uzbek folk proverbs about wheat, apple, maple and water are analyzed and explained.

Резюме. В данной статье рассматривается реализация символических значений посредством пословиц. Проанализированы и объяснены символические значения, передаваемые названиями этих растений в узбекских народных пословицах, включая пшеницу, яблоню, клен и воду.